

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245



Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautes Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 258-sahifa.
2026-yil, sentabr.





MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

КУРПАЯНИДИ КОНСТАНТИН ИВАНОВИЧ

Стратегии цифровой трансформации в Европейском союзе и потенциал институционального трансфера Французского опыта в Узбекистан.....11

ERGASHEV RUSTAM RAJABOVICH

Ilmiy ishlanmalar asosida Spin-off korxonalarini tashkil etish va rivojlantirishning bosqichli boshqaruv modeli.....25

ABDURAXMANOVA MUQADDAS TOXTASINOVNA

Temir yo'l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ilg'or mexanizmlari.....34

ABDULLAYEV ILYOS AXMADOVICH, JABBOROV JAMOLIDDIN MUXAMMADJON O'G'LI

Surxondaryo viloyatida demografik jarayonlarning statistik tahlili.....44

XASANOV SANJARBEK ABDUMANNOBOVICH

Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya darajasini baholash uslubiyoti ("Farg'onaazot" AJ misolida).....50

ABDURAZAKOVA NARGIZA RIXSIBAYEVNA

Aksiyadorlik jamiyatlarida xususiy kapital rentabelligiga ta'sir etuvchi omillar: O'zbekistonning uchta aksiyadorlik jamiyati misolida panel tahlil.....57

SULTANOVA ZUXRA JAKSILIKOVNA

Qaraqalpaqstan Respublikasida region ekonomikasini rivojlantirishda IT park xizmatini amalga oshirish masalalari ham paydalanilgan mumkinliklari.....69

ERGASHEV G'YOS BAXROM O'G'LI

Mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish zarurati.....76

URMANOVA UMIDA XAKIMDJANOVNA

Sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish holati va rivojlanish tendensiyalari.....87

SHAMSIDDINOVA DILNOZA SHAVKAT QIZI

O'zbekiston chirm poyabzal korxonalarida milliy brend qiymatini oshirishning marketing mexanizmlarini takomillashtirish.....97

MUSAYEV OZODJON SHAVKAT O'G'LI

Mehnat resurslarini boshqarishning zamonaviy usullari va ularning iqtisodiy samaradorligi.....106

XALIKCHAYEVA SADOKAT

Qum-shag'al mahsulotlarini realizatsiya qilishda soliq bazasini aniqlash metodologiyasi "Minimal narx" mexanizmining tatbiq chegaralarini takomillashtirish masalalari.....113

XUSANOV SHUXRAT BURXANOVICH

Moliyaviy hisobotlarni qalbakiylashtirish xavfi ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqish.....122





QUDRATOV ALISHER ALIJANOVICH, QODIRQULOVA SEVINCH TOIR QIZI

Qishloq xo'jaligida dukkakli mahsulotlarni yetishtirishda davlatning iqtisodiy tutgan o'rni.....133

IKROMOVA IRODA

Transport logistika korxonalari va koridorlari samaradorligini oshirishda milliy logistikani boshqarish markazi platformasi.....139

AXMADOVA IRODA MUZAFFAR KIZI

The economic role of professional tour guides in enhancing the quality of ecotourism services.....153

SODIQOVA NIGORA TURAYEVNA

Suv resurslari cheklangan sharoitda hududiy ixtisoslashuvni takomillashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish.....165

АСРОРОВА МАВЛУДА АБДУШУКУРОВА

Кадровый потенциал в системе государственной научно-инновационной политики: сравнительный анализ опыта зарубежных стран.....175

KULIBOYEV AZAMAT SHONAZAROVICH

Davlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlar kalkulyatsiyasini shakllantirish va xarajatlar hisobining uslubiy muammolari.....193

UMAROV JAVOHIR BAHODIR O'G'LI

Tovar operatsiyalari hisobini avtomatlashtirishda integratsiyalashgan axborot tizimlarining roli: jahon tajribasi misolida.....204

KADIROVA LAZOKAT YUREVNA

Davlat moliyaviy nazorati jarayonlarini sun'iy intellekt yordamida riskka yo'naltirilgan raqamli nazorat modeli asosida takomillashtirish.....212

BAXSHULLOYEV FERUZBEK

The economics of digital water management: a critical review.....226

TO'XTAYEV UMIDJON SHUHRAT O'G'LI

Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy mexanizmi amal qilish tamoyillari.....236

RAXIMOV ANVAR NORIMOVICH, MIRZAYOROVA HURIYAT

UBAYDULLAYEVNA

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligidagi hududiy tafovutlarni baholash.....244

XURRAMOV XOLBEK XURRAM O'G'LI

O'zbekistonning janubiy hududlarida anorchilik tarmog'ining rivojlanish tendensiyalari.....251

ABDUSHEROZOVA MADINA SODIQJON QIZI

Agrologistika korxonalarini rivojlantirish va shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish.....258





AGROLOGISTIKA KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH VA SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH

ABDUSHEROZOVA MADINA SODIQJON QIZI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda agrologistika korxonalarining rivojlanishi va xo'jalik subyektlari bilan shartnomaviy munosabatlari tahlil qilingan. Agrologistika faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlarning cheklanganligi sababli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi dinamikasi va agrologistika markazlari faoliyatiga oid ma'lumotlardan foydalanilgan. Korxonalar faoliyati SWOT-tahlil asosida baholanib, shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: agrologistika, agrologistika korxonasi, logistik xizmat, agrologistika markazi, shartnomaviy munosabatlar, qishloq xo'jaligi, sovuq zanjir, SWOT-tahlil, samaradorlik.

Аннотация. В статье проанализированы развитие агрологистических предприятий в Узбекистане и их договорные отношения с хозяйствующими субъектами. В связи с ограниченностью статистических данных по агрологистике использованы показатели динамики сельскохозяйственного производства и сведения о деятельности агрологистических центров. Деятельность предприятий оценена с использованием SWOT-анализа, а также разработаны направления совершенствования договорных отношений.

Ключевые слова: агрологистика, агрологистическое предприятие, логистическая услуга, агрологистический центр, договорные отношения, сельское хозяйство, холодная цепь, SWOT-анализ, эффективность.

Abstract. The article analyzes the development of agrologistics enterprises in Uzbekistan and their contractual relations with economic entities. Due to limited statistical data on agrologistics, the study uses agricultural production dynamics and information on agrologistics centers. The activities of agrologistics enterprises are assessed using SWOT analysis, and directions for improving contractual relations are proposed.

Keywords: agrologistics, agrologistics enterprise, logistics service, agrologistics center, contractual relations, agriculture, cold chain, SWOT analysis, efficiency.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan bir qatorda ularni saqlash, qayta ishlash, qadoqlash, tashish va iste'mol bozorlariga o'z vaqtida yetkazib berish jarayonlarini samarali tashkil etish agrar tarmoq raqobatbardoshligining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tez buziluvchan meva-sabzavot mahsulotlarida ishlab chiqarishdan keyingi logistik jarayonlarning uzluksizligi mahsulotning bozor qiymati va ishlab chiqaruvchining daromadiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [1]. Logistik konsepsiyasida mahsulot oqimining ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan harakatini muvofiqlashtirish bilan bir qatorda axborot va moliyaviy oqimlarni boshqarish ham muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligida esa mahsulotning mavsumiyligi, tez buziluvchanligi, ishlab chiqaruvchilarning hududiy tarqoqligi va bozor talabining o'zgaruvchanligi agrologistika xizmatlarini boshqa logistika yo'nalishlaridan farqlovchi omillar sifatida namoyon bo'ladi [2]. O'zbekistonda so'nggi yillarda agrologistika infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.





Xususan, Osiyo taraqqiyot banki tomonidan 2018-yilda O'zbekistonda Andijon va Samarqand viloyatlarida agrologistika markazlarini tashkil etish uchun 197 mln AQSh dollari miqdorida kredit ajratilgan. Loyihaning asosiy maqsadi meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, sifat nazorati, tashish va taqsimlash xizmatlarini yagona tizimda birlashtirishdan iborat bo'lgan [3]. Agrologistika markazlari konsepsiyasining muhim jihati shundaki, ular oddiy omborxona sifatida emas, balki mahsulotni qabul qilishdan tortib, qayta ishlash, saqlash, sertifikatlash, transportirovka qilish va ichki hamda tashqi bozorlarga chiqarishgacha bo'lgan jarayonlarni birlashtiruvchi infratuzilma majmuasi sifatida shakllantirilmoqda [4]. Shu nuqtai nazardan agrologistika korxonalarining rivojlanishini faqat infratuzilma obyektlarining ko'payishi bilan emas, balki ularning fermer, dehqon va boshqa xo'jalik subyektlari bilan barqaror iqtisodiy munosabatlar o'rnatishi, xizmatlarni shartnoma asosida ko'rsatishi va ushbu xizmatlarning samaradorligi bilan baholash maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Logistika nazariyasida mahsulot, axborot va moliyaviy oqimlarni muvofiqlashtirish korxona samaradorligining muhim omili sifatida qaraladi. Xorijiy iqtisodchi olimlardan D.J. Bowersox va D.J. Closs kabi tadqiqotchilar logistikada ta'minot, tashish, saqlash va taqsimlash jarayonlarini yagona tizim sifatida boshqarish zarurligini ta'kidlaydi, ularning fikricha, aynan integratsiyalashgan yondashuv korxona xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi [5]. J.R. Stock va D.M. Lambert kabi olimlar esa logistikani strategik boshqaruv nuqtai nazaridan tahlil qilib, ta'minot zanjirining barcha bo'g'inlarini muvofiqlashtirish korxonaning bozordagi raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatadi [6]. M. Christopher tadqiqotlarida logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi mahsulot oqimini ishlab chiqarishdan iste'molchigacha bo'lgan barcha bosqichlarda muvofiqlashtirishni nazarda tutishi, bunda vaqt, xarajat va xizmat sifati o'rtasidagi nisbat muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslangan [1]. MDH davlatlari olimlaridan A.R.Radionov va R.A.Radionov korxonalarning sotuv zaxiralari va aylanma mablag'larini me'yorlashtirish masalalarini logistik yondashuv asosida yoritib, bu jarayonning moliyaviy samaradorlikka bevosita ta'sirini asoslaydi [7]. L.B. Mirotin tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa logistik boshqaruv samaradorligini oshirishda ta'minot, saqlash, taqsimlash va transport jarayonlarini o'zaro bog'liq holda boshqarish zarurligi ko'rsatib berilgan [8]. O'zbekistonda agrologistika masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdan keyingi bosqichlarda saqlash, tashish, qayta ishlash va realizatsiya qilish jarayonlarini yagona tizim sifatida tashkil etish zarurligiga e'tibor qaratilgan [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik tahlil va SWOT-tahlildan foydalanildi. Agrologistika korxonalari bo'yicha alohida statistik tasnif mavjud





emasligi sababli tahlilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi hamda agrologistika markazlari bo'yicha rasmiy va xalqaro loyiha ma'lumotlaridan foydalanildi. Shartnomaviy munosabatlarni baholashda shartnoma predmetining aniqligi, xizmat ko'rsatish muddati, mahsulotning saqlanish shartlari, tarif va hisob-kitob tartibi, tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda javobgarlik mexanizmlariga e'tibor qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi ularni saqlash, qayta ishlash va taqsimlash xizmatlariga bo'lgan talabni ham oshirmoqda. Milliy statistika ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi 2022-yil IV choragida 351 216,6 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil IV choragida 455 073,6 mlrd so'mga, 2025-yil IV choragida esa 508 711,1 mlrd so'mga yetgan. 2026-yil II choragida mazkur ko'rsatkich 250 787,4 mlrd so'mni tashkil etgan [10]. Mazkur dinamika agrar ishlab chiqarish ko'lamining kengayishi bilan bir vaqtda mahsulotlarni bozorgacha yetkazib berish infratuzilmasiga bo'lgan talab ham ortib borayotganini ko'rsatadi. Biroq choraklik ko'rsatkichlarning mavsumiy xususiyatga ega ekanligini hisobga olish zarur. Shu sababli alohida chorak ma'lumotlarini yillik ko'rsatkichlar bilan bevosita tenglashtirib baholash emas, balki ular dinamik tendensiyaning aniqlash uchun qo'llanishi maqsadga muvofiq. Yillik ma'lumotlar ham ushbu tendensiyaning tasdiqlaydi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmi 2020-yilda 250 250,6 mlrd so'mni, 2021-yilda 303 415,5 mlrd so'mni, 2022-yilda 345 191,7 mlrd so'mni, 2023-yilda 405 418,0 mlrd so'mni va 2024-yilda 439 948,0 mlrd so'mni tashkil etgan [11]. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining bunday hajmlarda shakllanishi mahsulotni ishlab chiqarishdan keyingi bosqichlarda boshqarishning iqtisodiy ahamiyatini oshiradi. Ayniqsa, meva-sabzavot mahsulotlarida saqlash muddati, sovutish, saralash, qadoqlash va transport jarayonlarining o'zaro muvofiqlashtirilishi mahsulotning yakuniy qiymatiga ta'sir etuvchi omillardan hisoblanadi [12]. Agrologistika infratuzilmasini rivojlantirishda yirik markazlarni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. OTB ma'lumotlariga ko'ra, Andijon agrologistika markazi loyihasida taxminan 25 ming m² savdo maydoni, 60 ming m³ sovuq saqlash quvvati va 12 ta qayta ishlash liniyasi, Samarqand markazida esa 35,6 ming m² maydon, 60 ming m³ sovuq saqlash quvvati va 17 ta qayta ishlash liniyasi nazarda tutilgan [3]. OTB loyihasida Andijon markazining yillik o'tkazish quvvati eksport uchun taxminan 600 ming tonna va ichki bozor uchun 80 ming tonna, Samarqand markazining tegishli ko'rsatkichlari esa eksport uchun 850 ming tonna va ichki bozor uchun 150 ming tonna etib belgilangan. Mazkur markazlar yagona xizmat ko'rsatish tamoyili asosida savdo, saqlash, qayta ishlash, oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha sertifikatlash, bojxona rasmiylashtiruv, transport va boshqa xizmatlarni birlashtirishga mo'ljallangan [4]. Agrologistika markazlarini rivojlantirishning mazkur modeli mahsulot oqimlarini markazlashtirish, ishlab chiqaruvchi va xaridor o'rtasidagi aloqalarni qisqartirish hamda mahsulotni ichki va tashqi





bozorlarga tayyorlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunda markazning iqtisodiy samaradorligi faqat uning fizik quvvatlari bilan emas, balki ushbu quvvatlarning amalda qay darajada band qilinishi va xizmatlardan foydalanayotgan xo'jalik subyektlari soni bilan ham baholanishi lozim. Shu bilan birga, agrologistika korxonasi samaradorligini faqat uning ombor yoki sovutish quvvati bilan baholash yetarli emas. Korxona xizmatlaridan foydalanuvchi subyektlar bilan shartnomaviy munosabatlarning aniqligi, xizmat sifati, yetkazib berish muddati, tariflar, mahsulotning saqlanish sharoiti va tomonlarning javobgarligi ham muhim mezonlar hisoblanadi. Agrologistika korxonasi va xo'jalik subyekti o'rtasidagi shartnoma logistik xizmatning iqtisodiy asosini tashkil etadi. Bunday shartnomada mahsulot hajmi, qabul qilish va yetkazib berish muddati, saqlash sharoiti, transport xizmati, xizmat haqi, hisob-kitob tartibi hamda tomonlarning javobgarligi aniq belgilanishi lozim. Shartnomaviy munosabatlarning huquqiy aniqligi xo'jalik subyektlari o'rtasida majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni kamaytirish uchun muhim hisoblanadi[13]. Agrologistika xizmatlarining o'ziga xos jihati shundaki, shartnoma faqat mahsulotni bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazib berishni emas, balki bir nechta ketma-ket xizmatlarni qamrab olishi mumkin. Jumladan, mahsulotni qabul qilish, sifat bo'yicha dastlabki tekshirish, saralash, qadoqlash, sovitish, vaqtincha saqlash, tashish va xaridorga topshirish jarayonlari yagona xizmat zanjirini tashkil qiladi. Shu sababli shartnomaviy munosabatlarning samaradorligiga mahsulot ishlab chiqaruvchilarning mayda va tarqoqligi, xizmat turlari va tariflarining hududlar bo'yicha farqlanishi, logistik axborotning yetarli darajada raqamlashtirilmaganligi va xizmat sifati ko'rsatkichlarining bir xil standartlar asosida baholanmasligi ta'sir qilishi mumkin. Bundan tashqari, agrologistika xizmatlarida mavsumiylik omili ham shartnomaviy munosabatlarning mazmuniga ta'sir qiladi. Hosilni yig'ib olish davrida saqlash va transport xizmatlariga bo'lgan talabning keskin oshishi korxonalarning quvvatlaridan foydalanish darajasini o'zgartirishi mumkin. Shu sababli uzoq muddatli va mavsumiy shartnomalarda xizmat hajmi, tariflarning o'zgarish shartlari va qo'shimcha xizmatlardan foydalanish tartibini oldindan belgilash maqsadga muvofiq. Shu sababli agrologistika korxonalarida shartnoma munosabatlarini "mahsulotni qabul qilish – saqlash – qayta ishlash – tashish – yetkazib berish – hisob-kitob" zanjiri asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuvda har bir bosqich uchun mas'ul tomon, xizmat muddati, sifat talabi va javobgarlik chegarasi belgilanadi. Agrologistika markazlarining rivojlanishi bilan ushbu jarayonlarni raqamlashtirish imkoniyatlari ham kengaymoqda. Xususan, elektron buyurtmalar, elektron shartnomalar, ombor hisobining raqamlashtirilishi va mahsulot harakatini kuzatish tizimlari xizmat ko'rsatish tezligi va shaffofligini oshirishga xizmat qilishi mumkin [14].

SWOT-tahlil natijasida agrologistika korxonalarining asosiy ustunligi kompleks xizmat ko'rsatish imkoniyati bilan, asosiy zaifligi esa infratuzilma va shartnomaviy xizmatlarni standartlashtirish darajasi bilan bog'liq ekani aniqlanadi.





1-jadval

SWOT-tahlil

S – Kuchli tomonlar Saqlash, saralash, qadoqlash va tashish xizmatlarini kompleks ko'rsatish; mahsulotni bozorga tayyorlash; ishlab chiqaruvchi va bozor o'rtasida logistik bog'lovchi vazifasini bajarish; eksportbop mahsulotlarni tayyorlash imkoniyati.	W – Zaif tomonlar Infratuzilmaning hududlar bo'yicha notekis rivojlanganligi; yagona axborot bazasining yetarli emasligi; kichik xo'jalik subyektlarining logistik xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari cheklanganligi; xizmat sifati va tariflarni baholash mexanizmlarining standartlashmaganligi.
O – Imkoniyatlar Agroeksportni kengaytirish; sovuq zanjir infratuzilmasini rivojlantirish; raqamli logistika va elektron shartnomalarni joriy etish; davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish; agrologistika markazlari orqali mahsulot oqimlarini birlashtirish.	T – Tahdidlar Yoqilg'i va transport xarajatlarining o'zgarishi; energiya xarajatlarining yuqoriligi; mahsulot hajmining mavsumiy o'zgarishi; logistik xizmatlar narxining oshishi; mahsulot sifati va yetkazib berish muddatlari bo'yicha shartnomaviy nizolar yuzaga kelish ehtimoli.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Agrologistika korxonalarining imkoniyatlari orasida raqamlashtirish alohida ahamiyatga ega. Elektron shartnomalar va raqamli buyurtma tizimlari mahsulot hajmi, xizmat turi, yetkazib berish muddati va hisob-kitob ma'lumotlarini yagona axborot muhitida shakllantirish imkonini beradi. Bu esa shartnomaviy munosabatlarda axborot almashinuvini tezlashtirish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari, agrologistika korxonalari samaradorligini baholashda faqat moliyaviy natijalar emas, balki mahsulotni saqlashdagi yo'qotishlar darajasi, transportdan foydalanish koeffitsiyenti, ombor quvvatidan foydalanish darajasi, buyurtmani o'z vaqtida bajarish ulushi va bir tonna mahsulotga to'g'ri keladigan logistik xarajat kabi ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shartnomaviy munosabatlar samaradorligini baholash uchun esa shartnomalarning bajarilish darajasi, o'z vaqtida yetkazib berilgan buyurtmalar ulushi, shartnoma bo'yicha yuzaga kelgan nizolar soni, xizmat uchun to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi va takroriy buyurtmalar ulushidan foydalanish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi ortib borayotgani bilan birga ularni saqlash, tashish va bozorga yetkazib berishga bo'lgan ehtiyoj ham oshib borayotgani ko'rindi. Andijon va Samarqanddagi agrologistika markazlari bu jarayonlarni bir joyda tashkil etish uchun muhim imkoniyat yaratmoqda. Lekin korxonalarning samarali ishlashi faqat bino va uskunalarga emas, balki ular bilan ishlaydigan fermer va boshqa ishlab chiqaruvchilar bilan yaxshi yo'lga qo'yilgan munosabatlarga ham bog'liq. Shu sababli agrologistika korxonalari bilan mahsulot ishlab chiqaruvchilar o'rtasida oldindan kelishilgan va aniq shartnomalar tuzish, unda mahsulot miqdori, saqlash muddati, xizmat narxi va tomonlarning javobgarligini belgilash maqsadga





muvofig. Ayniqsa, kichik fermerlar uchun mahsulotni birgalikda saqlash va tashish imkoniyatlarini yaratish ularning logistika xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, agrologistika markazlarining mavjud saqlash, sovutish va qayta ishlash quvvatlaridan mavsumga qarab to'liqroq foydalanish lozim. Kelgusida agrologistika xizmatlari uchun oddiy va tushunarli namunaviy shartnoma shaklini ishlab chiqish ham korxonalar va mahsulot ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni ancha yengillashtiradi. Umuman olganda, agrologistika korxonalarini rivojlantirishda asosiy e'tibor yangi obyektlar qurish bilan birga mavjud imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish va ishlab chiqaruvchi bilan korxona o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Christopher M. Logistics and Supply Chain Management. – London: Pearson Education, 2016.
2. FAO. The State of Food and Agriculture 2021: Making agrifood systems more resilient to shocks and stresses. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2021.
3. Asian Development Bank. Horticulture Value Chain Infrastructure Project. Project No. 51041-002. – Manila: Asian Development Bank, 2018.
4. Asian Development Bank. ADB Loan to Establish "One-Stop Shops" for Horticulture Product Processing, Storage, and Distribution in Uzbekistan. – 2018.
5. Bowersox D.J., Closs D.J., Cooper M.B. Supply Chain Logistics Management. – New York: McGraw-Hill, 2013.
6. Stock J.R., Lambert D.M. Strategic Logistics Management. – New York: McGraw-Hill, 2001.
7. Радионов А.Р., Радионов Р.А. Логистика: нормирование сбытовых запасов и оборотных средств предприятий. – Москва: Дело и сервис, 2002.
8. Миротин Л.Б. (ред.). Эффективность логистического управления. – Москва: Экзамен, 2004.
9. Tairova M.M., Abdullayev A.J., Erxonova M.A. Agrologistika. – Toshkent: Durdona, 2021.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmi (choraklik).
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmi (yillik).
12. FAO. The State of Food and Agriculture 2019: Moving forward on food loss and waste reduction. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2019.
13. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. – LexUZ.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjournal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669225 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy